

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

SAVDO KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Uzakov Utkir Abdusattarovich

*Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar
Universiteti “Iqtisodiyot va boshqaruv” kafedrasida katta o‘qituvchisi
e-mail:utkir.uzoqov@gmail.com*

Annotatsiya: Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish, korxonalarda zamonaviy dasturlardan foydalanish hamda ushbu dasturlardan foydalangan holda ish va vaqt unimdorligini oshirish kabi masalalar ochib berilgan. Qolaversa xatolarni oldini olish va buxgalteriya hisobi ma’lumotlaridan foydalanuvchilarni tez va sifatli axborot bilan ta’minlash yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Raqamli iqtisodiyot, savdo korxonalarida, buxgalteriya hisobi, axborotlar, debitorlik va kreditorlik qarzlari, soliq, statistika, avtomatlashtirish, samaradorlik, bulutli texnologiyalar.

O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuning 4-moddasida ta’kidlanganidek, buxgalteriya hisobi barcha xo‘jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida hisobga olish yo‘li bilan buxgalteriya axborotini yig‘ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.[1]

Umuman olganda buxgalteriya hisobi asosan axborotlar bilan ishlanganligi sababli, bu axborotlar savdo korxonalarida ish jarayonlari ketishi va vaqt o‘tishi bilan ulkan ma’lumotlar bazasiga aylanib ketadi, shu sababli ham bu ma’lumotlardan tez va sifatli hamda samarali foydalanish kerak bo‘ladi. Raqamli texnologiyalar ulkan ma’lumotlardan tez va qulay foydalanishda bizlarga yaxshi yechim hisoblanadi.

Xozirgi zamon globalashuv jarayonida raqamli texnologiyalar kundan kun rivojlanib bormoqda, xususan savdo korxonalarining buxgalteriya hisobini yuritishda turli xil dasturlardan keng foydalanish ish va sifat samaradorligini anchagina oshiradi. Bu zamonaviy dasturlardan foydalanishda nafaqat buxgalteriya hisobini yuritishda, savdo korxonalarining deyarli barcha bo‘lim va pog‘onalarida, turli qismlarida foydalanish ko‘plab samara beradi. Savdo korxonalarida ko‘plab mijozlar bilan ishlanganligi sababli, ishlar tez, samarali va qulay bo‘lishi kerak. Mijozlar xar doim xaq deganlaridek, savdo korxonalarining mijozlari tezroq va qulayroq bo‘lgan joyga intiladi. Raqobat sharoitida bozorda omon qolish va rivojlanish uchun albatta xar qanday savdo korxonalarida zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanishlari kerak hisoblanadi va buni ko‘plab korxonalar yaxshi tushunadi va bundan samarali foydalanadi.

Maqolaning metodologik asoslarini O‘zbekiston Respublikasining Qonunlari, Prezidentimizning qaror va farmonlari, asarlari va ma’ruzalari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Vazirliklar, Davlat qo‘mitalari va idoralarning hujjatlari, buxgalteriya hisobiga oid milliy va xalqaro standartlar, Nizomlar, yo‘riqnomalar, xorijda va Respublikamizda chop qilingan ilmiy ishlar, darsliklar va qo‘llanmalar, ilmiy maqolalar, internet tarmog‘i materiallari hamda izlanishlar olib borilgan korxonalarining amaliy materiallari tashkil etadi.

Savdo korxonalarida axborotlar bilan ishlashda ko‘p vaqt, kuch va mablag‘ sarflanadi. Manashu moammolarga raqamli texnologiyalar va zamonaviy dasturiy maxsulotlarni qo‘llagan holda savdo korxonalarini avtomatlashtirish yaxshi va oqilona yechim hisoblanadi. Buxgalteriya jarayonini avtomatlashtirish bu qo‘lda va ko‘p vaqt talab qiladigan turli xil buxgalteriya vazifalari va jarayonlarini yaxshilaydigan dasturiy ta’minotni amalga oshirishni anglatadi. Savdo korxonalarida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish natijasida quyidagi imkoniyat va qulayliklarni beradi:

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

- Ulkan ma’lumotlar bilan tez va samarali ishlash;
- Inson xatolarini kamaytirish;
- Turli xil qog‘ozvozlarni qisqartirish;
- Masofadan turib ishlash;
- Axborotdan foydalanuvchilar va qaror chiqaruvchi shaxslarga tezda ma’lumotlarni yetkazish;
- Ulkan ma’lumotlarni “bulutli” serverlarda saqlash;
- Analitik ma’lumotlarni idroq qilish va tushunush uchun qulay bo‘lgan shaklda taqdim etish (diagrammalar, grafiklar, jadvallar) [2];
- Asosiy hujjatlardagi rekvizitlarni avtomatik to‘ldirish [3];
- Boshqaruv va bo‘ysunuvchilar, tashkilot bo‘linmalari o‘rtasida darhol ma’lumot almashish [2.3];
- Bitta ma’lumot ustida bir vaqtda bir nechta foydalanuvchi foydalanishi;
- Bir nechta omborlardagi qoldiqlarni real vaqt rejimida kuzatish;
- Debitorlik va kreditorlik qarzlari vaqtlarini avtomatik eslatib turish;
- Turli xil soliq, statistika va boshqa hisobotlarni tezda topshirish.

Yuqorida ko‘rsatilgan afzalliklardan tashqari savdo korxonalarini avtomatlashtirish natijasida xodimlar sonini qisqartirish va ularga to‘lanadigan xaqlarni tejab qolish, hisobotlarni tayyorlashda vaqtni kam sarflash, tovarlarning qaysi qismi ko‘proq sotilishini kuzatish, mijozlar xatti-harakatini bilish va boshqa ko‘plab samaradorliklarga erishish mumkin. Ushbu hisobotlar resurslarni qayerga taqsimlash haqida yaxshiroq qaror qabul qilishga yordam beradi.

Xozirgi kunda buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish oid juda ko‘plab turli xil dasturlar mavjud bo‘lib. Bularga: 1C, 1UZ, SAP, QuickBooks, Xero, FreshBooks va boshqa ko‘plab dasturlarni kiritish mumkin.

Bu dasturlarni yangilangan versiyalari bir qancha qulayliklarni yaratib kelmoqda. Misol uchun:

- Siz elektron hisob-fakturalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri dastur orqali almashishingiz mumkin
- Soliq hisobotining barcha shakllari avtomatik tarzda shakllantirilib, to‘g‘ri my.soliq.uz personal kabinetiga jo‘natilishi mumkin
- To‘lovlarni boshqarish uchun endi bank-mijozni ochishning hojati yo‘q. Bank bilan o‘zingizning dasturingizdan ishlashingiz mumkin [4].

Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishdan asosiy sabablaridan biri bu-vaqt. Bu kompyuter dasturlari o‘rtacha odam bir kunda qila oladigan narsani bir daqiqada bajarib berishidir. To‘g‘ri kiritilgan ma’lumotlar bilan bir necha daqiqa yoki soniya ichida murakkab hisobotlarni yaratishingiz mumkin. Natijada, ishingizni bajarish uchun siz hatto elektron jadval yoki kalkulyatorga tegishingiz shart emas. Aksariyat korxonalarda vaqtni tejash pulni tejashga teng sanaladi [5].

Buxgalteriya hisobining avtomatlashtirilgan yechimlari buxgalterning vaqtini va kuchini tejashga yordam beradi. Korxonaning buxgalteriya jamoasi endi natijalarni tezroq va aniqroq berishi mumkin. Bu ko‘proq mijozlarni jalb qilish va bozorda korxonaning ishtirokini kengaytirish imkoniyatini oshiradi.

Avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobining maqsadi buxgalteriya mutaxassislariga yordam berishdir. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish qo‘lda bajariladigan vazifalarni avtomatlashtirish orqali hisob jarayonlarini soddalashtirish va tezlashtirish uchun mo‘ljallangan. Avtomatlashtirilgan buxgalteriya hisobi yoki kompyuterlashtirilgan buxgalteriya dasturi sifatida ham tanilgan ushbu tizimlar buxgalterlarning ish jarayonlarida samaradorlikni oshirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish korxonalarda ajoyib natijalar beradi: ish haqi, kreditorlik qarzlari, xaridlar va hatto oy

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

oxiridagi turli xil hisobotlarni tez va aniq bajariladi, bu jarayonlar ko‘pincha hech qanday odam ishtirokisiz bajariladi. Xozirgi kunga kelib deyarli dunyoning xamma davlatlarida korxonalar avtomatlashtirilmoqda va raqamli iqtisodiyotga jadallik bilan o‘tilmoqda desak bo‘ladi. Shu o‘rinda bizning yurtimizda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda davlatimiz tomonidan bir nechta ko‘plab imkoniyatlar yaratilmoqda va qo‘llab-quvatlanib kelinmoqda. Bu borada Prezidentimizning 2020-yil 05-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmonini ham keltirib o‘tishimiz muhim hisoblanadi [6].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonuni (yangi tahrir) 13.04.2016, O‘RQ 404-son. <https://lex.uz/ru/docs/-2931253>
2. Razzaqova D.A. “raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirishning roli va ahamiyati” Scientific progres Volume 2 |ISSUE 8| 2021, 245
3. <https://www.venkonbuhgalteriya.uz/uz/>
4. Randy Johnston “Digitalization, automation, and technology adoption” 12.01.2023 <https://www.k2e.com/articles/digitalization-automation-and-technology-adoption/>
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 05-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni, <https://lex.uz/docs/-5030957>
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 06-sentabrdagi “Savdo va xizmat ko‘rsatish sohasidagi hisob-kitoblar tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ushbu sohada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5813-son farmoni, <https://lex.uz/docs/4502381>
7. Самадова Н.Р. Хўжалик юритувчи субъектлар иқтисодий салоҳияти тушунчаси ва унинг назарий асослари. // Бизнес эксперт (илмий-амалий журнал). – Тошкент, - №4. 2021. – 87-91 б. (08.00.00; №4)
8. Самадова Н.Р. Хўжалик юритувчи субъектларда иқтисодий салоҳиятни ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлилининг амалий жиҳатлари // Scientific Journal of “International Finance & Accounting” 3/2023.
9. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITAL ECONOMY AND CHANGES IN BUSINESS ANALYSIS. International Journal of Research in Finance and Marketing (IJRFM), 13(12), 47-52. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRFM4Dec2023-Uzb.pdf>
10. Ibragimov Gayratjon Artikovich, Kurbanbaev Jurabek Eruvbayevich, Mukhiddinova Barno Gafurjanovna. (2019). The main differences between IFRS and NSA. International Finance and Accounting, 3(13), 1-12. Retrieved from <https://core.ac.uk/download/pdf/285998049.pdf>
11. Klichev Bakhtiyor Pardayevich. (2022). ISSUES OF PRODUCT PRICING IN THE ANALYSIS OF OPERATIONAL. Пандемия шароитида иқтисодиёт, молия ва бошқарувда рақамли трансформация жараёнлари (IV ФОРУМ «ЭКОНОМИКА В МЕНЯЮЩЕМСЯ МИРЕ» 2022 май КАЗАНЬ-ТАШКЕНТ), Казань-Ташкент. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6641015>
12. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2023). DIGITALIZATION OF THE ECONOMY AND OPERATIONAL SAFETY. International Journal of Research in Economics and Social Sciences(IJRESS), 13 (11), 95-101. Retrieved from <https://euroasiapub.org/wp-content/uploads/IJRESS10-Nov2023-Uzb.pdf>
13. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРДА ОПЕРАЦИОН ЦИКЛ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ . World Scientific Research Journal, 16(1), 196–203. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2718>

BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH MASALALARI

14. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). EKSPORT-IMPORT OPERATSIYALAR HISOBI NAZORATINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 215–222. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3034>
15. Gayratjon Ibragimov. (2024). TIJORAT BANKLARIDA MBMB TIZIMINI JORIY ETISH MASALALARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 223–230. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3035>
16. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ ТАҲЛИЛИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ МАСАЛАЛАРИ . World Scientific Research Journal, 12(2), 263–271. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2557>
17. У.А. Нурманов. (2024). ЖОРИЙ АКТИВЛАРНИ ҚўЛЛАШ ЖАРАЁНИДА БОШҚАРИШ ФУНКЦИЯСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ. World Scientific Research Journal, 26(3), 140–147. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3257>
18. Пардаевич, Қ. Б. (2023). Хўжалик юритувчи субъектларда операцион фаолиятида ишлаб чиқариш ҳажмини ифодаловчи кўрсаткичлар таҳлили. *Scientific Journal of “International Finance & Accounting”*, (2), 2181-1016.
19. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). MUQOBIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR . World Scientific Research Journal, 23(2), 231–238. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3036>
20. Тулаев, М. С., & Кличев, Б. П. (2022). ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА КОРПОРАТИВНЫХ ОБЛИГАЦИИ: ОБЯЗАТЕЛЬСТВО ИЛИ КАПИТАЛ. In *Учет, анализ и аудит: их возможности и направления эволюции* (pp. 146-154).
21. Ibragimov Gayratjon Artikovich. (2024). BIZNES JARAYONLARNI OPTIMALLASHTIRISH YO‘NALISHLARI . World Scientific Research Journal, 23(2), 239–246. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/3037>
22. Қличев Бахтиёр Пардаевич. (2023). ОПЕРАЦИОН ФАОЛИЯТ НАТИЖАЛАРИНИ ИФОДАЛОВЧИ КўРСАТКИЧЛАР ТАҲЛИЛИ. World Scientific Research Journal, 21(1), 182–188. Retrieved from <http://www.wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2876>